



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 7-sont.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOVA
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinnbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ular:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi
32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til.adabiyot@mail.uz
veb-sayt: www.tiladabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.
Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nustayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhajozalari bosilish mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga gaytarilmaydi.

Bosimaxonaga 27.07.2021da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84, Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» gamiturasasi: 10, 11 kieg. «GUANGZHOU TRADING COMPANY» MCHJ bosimaxonasida chop etildi.
"GUANGZHOU TRADING COMPANY" МЧЖ босимхонасида чоп этилди. Манзил: Ташкент ш., Учтепа т., Катта Хирмон-тепа ва Ширин кӯчалари чоррекаси косинчаси, 47 А"йл. Буортма №: 78/C. Адади: 2900.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

YUNUSOVA L. A. (ed.)

jurnali

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA
DOLZARB MAVZU

Abdurahim NASIROV. Davlat tilming o'qitilishi
Jumanazar ABDULLAYEV. Hozirgi o'zbek tilini o'qitishdagi bir muammoli holat va uning yechimi xususida
Abror MURTAZAYEV. Lingvistik ekspertiza ya sun'iy intellekt
METODIK TAVSIYA

Nazokat JIYANOVA. Ta'lim tizimida "interfaol sahbat" usuli
Rayxon RASULOVA. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda mumtoz adabiyot qatlamlariga murojaat
Xumara MARDIYEVA. O'quvchilarni kreativ fikrlashtirish o'rnatish

TEHLIQONOLIK

Gulrukx ELMURADOVA. Turizmga oid reklamalarning "konsept" tushunchasiga muvofiq tahlili
Ganisher JURAEV. Teaching phraseology as one of the main branches of lexicology

TARJIL

Erkin JUMAYEV. Ismiy kesim va o'zlashtirma xabar
Nilufar ADIZOVA. Poetik matnda giponimiya bedasisi
Xamza HAITOV. "O'tkan kunlar" romanida kuziga asoslangan dialoglarning badiy vazifalari
Guljahan NAMOZOVA. Badiy asar semanticasida masolining o'rni

TADQIQIYAT

Manzura NEGMADJONOVA. Ginekologiyada eponimik terminlar
Oybek GADAYEV. Payariq turmanidagi ayrim toponimlarning leksik-semantik tadqiqi
Soltion AZIZOV. Filologik oly ta'lilda blended ta'lim muhit: zamonaliv strategiya, yondashuv va texnologiya
Surayyo ZIYOTOVA. "Mehrobdan chayon" assarida qo'llanilgan maishiy leksika tadqiqi
Hulkar ALIQUOLOVA. Turkiy xalqlarda "yor-yor" jami

KICHLIK RADIQIQTAR

Keldiyor DAVLATOV. "Loyihalar uslubi" va uning ahamiyatি
Nilufar OYMATOVA, Mohinabonu YUNUSOVA. Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda

fanlararo integratsiya

SABOXAT RAVSHANOVA. Alisher Navoiy asarlarida "valo" tushunchasining g'oyaviy, badiy ifodasi
Orzaboy YULCHURAYEV. Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shilgalarini mabtobada o'rgatish usullari

Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek folklorida "hayot daraxti" haqidagi e'tiqodiq qarashlar

Shahnoza NURMATOVA. O'zbek va xitooy xalq maqollari: ma'nodagi o'shashlik va mushtaraklik

Azada SOATOVA. Dilshod Rajab she'riyatining badiy-estetik xususiyatlari

Kunduz KHAZIMOTOVA, Shavkat DJURAEV. Covid-19 and higher education: first-year students' expectations toward distance learning

Xurshida NISHONOVA. Adabiyot darslari da baholashning ahamiyatি

METODIKA SIBIT

El'zavina BEILIASHOVA. Izuchenie спряжения глаголов из материала лексической темы
«Студенческая жизнь»
МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

Ko'nisbay JOSUPOV. Izuchenie tvorchestva "Chintoz Litmatona v akademicheskikh licenziyah"
АЛГЫКОЛАННЕ

Cvetlana IM. Morfonologicheskie iavleniya – otlichitel'naya cherta fuzionnykh jazykov
54

Niliufarkhon YULDASHOVA. K interprretatsii termina «russo-uzbekchayna literatura v Uzbekistane»
НАРОДНЫЕ ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

Bekkenbaev RAYMOV. Odin vzygny na kulturyonochnuyu funktsiu frazeologizmov
57

Lola SULTANOVA. Ob istorii i razvitiyu meditsinskoy terminologii v kitayskom jazyke

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Julia MATEKOVA. Osnovnye tendentsii v razvitiyey simevremennoy frantsuzskoy literatury
61

Jasur ZNIYMUHAMEDOV. Khudozhestvennyy analiz novelyi Py Sulkina «Tri russkaya o volkakh»
63

Julia ISAEVA. DIALOG «starogo» i «novogo» v khronike N.S. Leskova «Soborin». ПРОБЛЕМЫ ПОИСКА РЕШЕНИЯ

Nafigisa HEMATJONOVA. Issledovaniye problemi konceptu cheloveka v simevremennoy filosofii
ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Baxtiyer DANIIYAROV. Principy i prinyemys original'noy metodiki obucheniya russkemu jazyku vzroslykh

70

Fatima XAKIMOVA, Zuxra XAKIMOVA. O nekotorykh antonimakh formakh rabinosti pri obucheniya russkemu jazyku v shkolakh s uzbekskim i drugimi jazykami obucheniya

72

Ranusha ATAEEVA. Prezentatsiya kak osnovnyi i produktivnyy metod raboti pri onlayn-obuchenii

КУЛЬТУРА РЕЧИ И ОБЩЕНИЯ

Gulychekra CHULNIEVA. Ton – neotyomlyayushchaya jedinica rechevogo protsesa

СОСЕДСТВО ЧУЛНИЕВОЙ

77

Anatolij LIKHODZHENSKIY. «Mudreç prostoserdечный»

79

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsisi etilgan ilmiy nashrdir.

7. Geminatsiyaning she'riyatdagi uslubiy o'mini bilasizmi?

8. Assonans nega fonostilistik vosita sifatida o'rganiladi?

Mavzu ko'lidan kelib chiqqan holda bunday savollar tizimi yanada kengaytirilishi mumkin. Talabalar darsda olgan nazariy bilimlari asosida fonostilistik vositalarning uslubiy xususiyatlarini badiiy asarlar yoki she'riyat misoldida og'zaki tahlil etishadi. Bu esa talabani badiiy asar o'qish va o'z nuqtayi nazari bilan uni tahlil etishga undaydi. Badiiy matn tahlili asosida talabaning ham yozma, ham og'zaki savodxonligi oshadi. Har qanday matni to'g'ri tahlil etishga o'rgatadi. O'z fikr-mulohazalarini bayon eta olish ko'nikmasi shakllanadi.

O'qituvchi topshiriq berib, vaqt belgilaydi. Talabalar o'tligan mavzuning nazariyasiga asoslangan holda topshiriqni bajaradi. Eng ko'p misollarni to'g'ri tahlil etgan guruh a'zolari baholanadi. Usulning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda berilgan har bir savolga aniq javob berish talab etilganligi bois kam tahlil etgan guruh a'zolarining kamchiliklan o'qituvchi tomonidan tahlil qilib beriladi. Guruhiar ichida berilgan savollarga aniq javoblar har xil bo'lishi tabii. Qoidaga monand berilgan javoblardan biri tanlab olinadi. Bu jarayon o'qituvchi bilan talaba o'ttasidagi jonli muloqot va qiziqarli suhbatni shakllantiradi. Mavzuning to'laqonli tahlil etilishiga erishiladi. Mavzu bo'yicha berilgan misollardan moslan

tanlab olinadi. O'qituvchi mavzuning nazariy qismini labalar tomonidan berilgan misollar asosida tahlil etadi.

"Interfaol suhbat" usulidan darsdan tashqari, masalan, mustaqil ta'lim mavzularini yoritishda ham foydalana mustaqil ta'lim mavzularini yoritishi uchun savollar tizimini shakllantiradi va vazifani bajarish uchun imkoniyat va vaqt beradi. Shunda talabalar bir mavzu yuzasidan nazariy ma'lumotlarni mustaqil tayyorlaydi va badiiy asarlardan misollar topib tahlil etgan holda topshiradi. Har bir mustaqil ta'lim mavzusi badiiy asarlar va she'riyat misoldida yoritiladi.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, o'qituvchi har bir mavzuni tahlil etishda interfaol usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mosidan o'rni foydalanish va talabalarning faoliigini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda, ayniqsa, "Aqliy hujum", "Tushunchalar tahlili", "Muammo", "Charxpak", "Rezyume", "Zinamazina", "Besh daqiqalik esse" kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyati katta. Bunday texnologiyalardan foydalana olishga erishish uchun o'qituvchilar ijodkor, o'qitishning modul, modul-kredit kabi barcha tizimlarda dars berish yo'llarini puxta egallagan bo'lislari, bugungi kun talabiga o'z iqtidor va salohiyatlari bilan javob bera olishlari zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2013.
2. S.Sultonsaidova, O.Sharipova. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009.
3. E.Qilichev. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. N.Jiyanova. O'zbek tilining amaliy uslubiyati. – Toshkent, 2018.

Rayxon RASULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MUMTOZ ADABIYOT QATLAMLARIGA MUROJAAT

Har bir pedagog o'z oldiga olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oладиган, кутилган ва кутилмаган muammoli vaziyatlar yechimini o'z zimmasiga ola biladigan zehnli yoshlarni tarbiyalashdek mas'uliyatlari maqsadni qo'ysagina zimmasidagi vazifani oqlagan bo'ladi. Bunda ona tili va adabiyot fanining o'mi beqiyos. O'quvchilarda kommunikativ salohiyatni shakllantirish, mustaqil hayotda o'z fikriga, o'z so'ziga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda bir-lamchi vazifalardan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini, o'qish savodxonligini o'stirish bo'lib qolmoqda. Og'zaki va yozma nutq o'stirish, avvalo, matn yaratishdek jiddiy hamda mas'uliyatlari jarayoni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Matn yaratishda zamon muammlariga yechim topish, ilm olish, mehnat qilish, umuminsonliy qadriyatlarini e'zozlashga yo'naltirilgan mavzulardan tansala, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matn yaratishga bir yoqlama me'yoriy talablar qo'ymasidan, ajodolar merosiga murojaat etib ilmiy yondashish lozim. Mutafakkirlar olamni qalb ko'zlarli ila ko'ra bilib, dunyon rangin bo'yoqlarda tasvirlab berishi insonlarda hayotni sevishga, mehnatga, ijodga havas uyg'otib kelgan. Bebafo asarlarda an'anaviy mavzu va obrazlar shakllantirilib, halol peshona teri orqali rizqini topishni, farzandlarini halol boqishni, el-yurtiga manfaati tegishni insoniylikning oliy burchi deya kuylab kelganlar. "Insoniyatning oliy burchi halol yashashdadir", deya moziydan to bugungi kunga qadar adabiyotimiz qatlamlarida aks etib kelayotgan asosiy g'oyani teran nigohlar ila ilg'ab olishimiz va buni baracha zamonlar muammosi yechimi ekanligini ko'rsatib berab olishimiz darkor. Shu sababli ushbu maqolada ilk insoniyat madaniyatini belgilagan ijod mahsullaridan to yetuk-qalam sohiblari ijodida sevib badiha qilingan obratzgacha

to'xtalalimiz. Bu obraz bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmasdan, mehnatni sevishga, hayotni go'zal qilishga, o'zgalar mehnatini qadrlashga, hayot muammolarini yecha olishga undovchi obrazdir. Bunday obrazlar mumtoz adabiyotimizda ko'plab topiladi. Asrlar osha kuylab kelinayotgan qushlar obrazi ozodlik va erkinlik, otlar obrazi do'stga, vatanga sadoqat kabi tuyg'ularni rivojlantirsra, maqsad sari olg'a intilish, musobaqaqlashish, bellashish singari kompetensiyalarni shakllantiradi.

Matn yaratishda moziyga qaytib, reminessensiya hodisiga murojaat etilsa va bu usuldan foydalanilsa, o'quvchi xotirasini mustahkamlash bilan bir qatorda assotsiativ fikrlash qobiliyatini ham oshiradi. Barcha davrlarda mutafakkirlar ijodlarda birligina dehqon obraziga murojaatlar ko'plab uchraydi. O'z baxtini mehnatda deb bilgan xalqimiz adabiyotida "Bobo dehqon" orqali ifodalab kelingan obrazlar silsilasi yaratilgan.

Alisher Navoiy "Dehqon" atamasini o'z asarlarida ziroat ahli, ziroatchilarga nisbatan qo'llash bilan bir qatorda, ushu atamani Allah - Yaratuvchi ma'nosida ham ishlangan. "Hayrat ul-abror" dostonining "Ko'ngil ta'rifida" bobiда: "Qudratli dehqon (Allah) ilk tongda yaratgan, loydan bino bo'lgan odamni o'z qudratining gulistonini qilib yaratdi", deydi. "Mahbub ul-qulub" asarining ottiz birinchi fasli - "Dehqonlar zikri"da esa:

Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'llin ochar.

Agar rostliq va salohi bordur, uyi solih noqasidin namurdur,

deydi. Buyuk mutafakkir bobomiz olam ahlining to'qligi, quvonchi, avvalo, yerga urug' sochib, bebafo nozne'mat yetishtiradigan fidoyi insonlar mehnatidandir, deb dehqonlar xizmatiga juda katta baho bergen. Dehqon haqidagi an'anaviy izohlar Alisher Navoiyga qadar ham uchrangan, bularni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnama", Firdavsiyning "Shohnoma", Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" va boshqa mumtoz adabiyot namunalarida ham kuzatish mumkin. Kaykovusning "Qobusnama" asarida "Ey farzand, agar dehqon bo'lsang, barcha dehqondan sinashtaroq (bilimdonroq) bo'lg'il va har bir ekinni eksang, vaqtidan o'tkazib ekmagil... Hamma vaqt yerni tarbiyat qilg'il, dehqonchilik peshasidin barhur dor (barhamand) bo'lg'aysan" kabi fikrlar uchraydi. Buni ardoqli adibimiz Oybekning "Qutiug' qon" romanida Mirzakarimboy jiyani Yo'Ichiga "Yer seni boqadi" deyga bergen maslahatida ham ko'rishimiz mumkin.

"Avesto"da ta'kidlanishicha, "kimda-kim bug'doy eksa, u Ashaxni (Haqqiqat)ni ekadi, Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. Mazda dinini yuzlab hamd-u sano, xayr-ehson, nazr-u niyoq va o'n minglab qurbanliklar quvvatlantirgandek, kuch-qudratli qiladi va quvvatga kiritadi. Qachonki egatlarda urug' yetilganda, devlar o'rinalardan ko'chadilar va gocha boshlaydilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karسا, devlar dahshatlardan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar oh-u nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyilsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay

bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, unib chiqsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi". Ko'rinadiki, "Avesto" paydo bo'lgan davrda g'alla ekish, don yetishtirish, umuman, dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan. Tarixdan ma'lumki, insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi markazlari paydo bo'lishi va rivojlanishida dehqonchilik madaniyati muhim omil bo'lgan. Ko'chmanchi qabilalar chorvachilik bilan shug'ullangan patriarchal jamiyatda ham madaniylasha boshiashi dehqonchilik bilan shug'ullanishda ko'zga tashlangan. Bu borada aytilish joizki, O'rta Osyo zaminidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarda shakllanganligidan dalolat beradi. Shu bois ham O'rta asrlarda Buxoroda dehqonchilik bayrami "Navro'zi kishavorzon" - "dehqonlar bayrami" deyilgan. Zahmatkash dehqonlar aynan ushbu kun qo'sh chiqarib urug'ni yerga qadaganlar. Dehqonchilik mehnatining turli faoliyat bilan bog'liq holda dehqonchilik qo'shiqlari ijro etilgan. Jumladan, yer haydash paytida "Qo'sh haydash", hosilni o'rib olishda "O'rim qo'shig'", ximon yanchig'ida esa "Xo'p mayda", "Mayda, mayda" qo'shiqlari aytilgan. "Qo'sh haydash" qo'shig'ini ho'kizga qo'shilgan omochanni boshqarib borayotgan dehqon aytgan. Unda she'riy to'rtliklar mehnat mazmuniga mos holda badha etilgan. "Yerga bersang mehringni, yer beradi rizqningi", deya yosh avlodga uqtirib kelingan. Dehqonlar saxiyligi-yu saxovatini quyoshning mil-mil nurlariga qiyoslab, ularni "Mirishkor bobo dehqon", deya e'tirof etishlarimizda adabiyotning roli beqiyos. Insoniyat bilan tengdosh va egizak bo'lgan adabiyotning ilk namunalarini bo'lmish xalq og'zaki ijodidan tortib to bugungi kun ijodiyotida ham "Dehqon" obrazi an'anaviy yashab kelmoqda.

Klaster usuli bilan "Moziyga sayohat" va "Ikki yoqlama kundalik" metodlaridan foydalanim bunday obrazlar mohiyatini ochish aynan bugungi kun talabidir. Umuminsoniy, umumimili qadriyatlarimizni e'ozolab hayotda qoqlimasdan yashash, loqaydlik va yalqovlik illatlaridan nafratlanish hissini o'quvchilarda shakllantirish har bir pedagogning burchidir. Bugun bu mavzuning naqadar dolzarbli Prezident Sh.Mirziyoyevning "mirishkor dehqon va fermer, suvchi va irrigator, mexanizator va agronom, agrar tarmoq olimlari dunyodagi eng sharaffli kasb egalari", deya e'tirof etishidan ham bilih mumkin.

Beqiyos merosga ega xalqning kuch-g'ayratga to'lgan zabardast o'g'il-qizlariga yuqorida milliy qadriyatlarini singdirib borish o'ta muhim, shunda ular kuch-qudratini o'zga yurtda emas, o'z yeri obodonligiga sarflashi shubhasiz. Biz adabiyot darsliklarida "Bobo dehqon" obrazini, ona tili darsliklarida hamda matn yaratish jarayonida "Dehqonchilik kasbi - to'kin-sochinlik manbayi" kabi mavzularni berib borishda biroz oqsab qolmoqdamiz. Milliy-ma'naviy merosimiz, ota-bobolarimiz hayoti saboqlariga, adabiyot sarchashmalariga murojaat etish va bu ulug'kasbni bor-bo'yicha yoritib berish yosh avlodga o'z yo'llarini to'g'ri tanlashda imkoniyat bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reminissensiya // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat Ilmiy nashriyoti. 154-bet.
2. Quranov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ali. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Rasulova R. Insonlar sadafi himmatidandur. – Academic Research in Educational Sciences, 2(1), pp. 907–910. 2021.